

## AUDITORLIK FAOLIYATINING YANGI BOSQICHI VA UNI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

Bekchanov Bekzod

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14543741>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada auditorlik faoliyti, unga doir qonun va farmoyishlar haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, auditorlik faoliyatini takomillashtirish to'g'risidagi yangi loyiha va islohotlar keng qamrovda tushuntirilgan.

**Kalit so'zlar:** Audit, auditor, auditorlik firmasi, yuridik shaxs, jismoniy shaxs, ustav, kapital.

### A NEW STAGE OF AUDITING ACTIVITIES AND PRIORITY DIRECTIONS FOR ITS IMPROVEMENT

**Abstract.** This article provides detailed information about auditing activities, related laws and regulations. Also, new projects and reforms on improving auditing activities are explained in detail.

**Keywords:** Audit, auditor, audit firm, legal entity, individual, charter, capital.

### НОВЫЙ УРОВЕНЬ АУДИТОРСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ЕГО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ

**Аннотация.** В данной статье представлена подробная информация об аудиторской деятельности, законодательстве и нормативных актах, связанных с ней.

Также подробно разъяснялись новый проект и реформы по совершенствованию аудиторской деятельности.

**Ключевые слова:** Аудит, аудитор, аудиторская фирма, юридическое лицо, физическое лицо, устав, капитал.

### KIRISH

Audit — muayyan vakolatlar berilgan shaxslar auditorlar (auditorlik firmalari) tomonidan xo'jalik yuritayotgan subyektlarning moliyaviy hisobotlari to'g'rilingini, ular amalga oshirgan moliyaviy va xo'jalik operatsiyalari O'zbekiston Respublikasining qonunlari hamda boshqa me'yoriy hujjatlariga qay darajada muvofiqligini, shuningdek mukammalligi va asosliligini, buxgalteriya hisob-kitobi va boshqa moliyaviy hisobot yuritishga doir talablarga qay darajada monandligini tekshirish maqsadida o'tkaziladigan moliya hujjatlarining ekspertizasi va tahlilidir.

Audit shuningdek konsaltingni — mijoz bilan shartnoma asosida xizmatlar ko'rsatishni o'z ichiga oladi.

Auditorlik faoliyati maxsus vakolat berilgan davlat idoralari tomonidan xo'jalik subyektlari faoliyati ustidan nazorat qilinishining o'mini bosmaydi.

Auditor — belgilangan tartibda auditorlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini olgan va auditorlarning kasb-kor ro'yxatiga kiritilgan mutaxassisdir.

Auditorlik firmasi — yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan, belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan o'z ustaviga ko'ra faoliyat sohasi auditorlik xizmatlari ko'rsatishdan iborat bo'lgan korxonadir.

Auditorlik firmalari kichik korxonalar, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar va boshqa tashkiliy-huquqiy shakldagi korxonalar tarzida tuzilishi mumkin, ochiq turdag'i aksiyador jamiyatlar bundan mustasno.

Auditorlar va auditorlik firmalari davlat ro'yxatidan o'tib, litsenziya olganlaridan keyin o'z faoliyatlarini boshlaydilar.

### **ADABIYOTLAR TAHLIL VA METODOLOGIYA**

#### **Auditorning (auditorlik firmasining) vazifalari**

Auditor (auditorlik firmasi):

- auditorlik tekshiruvlarini sifatli o'tkazishi, tekshirishlar o'tkazish bilan bog'liq boshqa auditorlik xizmatlari ko'rsatishi;

- o'zi tekshirayotgan xo'jalik yuritish subyektining rahbariyatiga tekshiruv chog'ida aniqlangan buxgalteriya hisob-kitobi yuritish hamda moliyaviy hisobot hujjatlari tayyorlashga doir talablar va qonunlar buzilganligi hollarini ma'lum qilishi;

- o'z vazifalarini bajarish chog'ida sir saqlash qoidalariga rivoja etishi. Mijozga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni faqat sud talabiga binoan oshkor etishga yo'l qo'yildi;

- tekshirish tugallanib, xulosa chiqarilgunga qadar uzsiz sabablarsiz o'z faoliyatini to'xtatib qo'ymasligi;

- zarur hollarda, tekshiruv natijalarini ma'lum qilish uchun mulkdorlarning (aksiyadorlarning) umumiyligi yig'ilishi chaqirilishini talab qilishi;

- basharti, oldindanoq o'z xatti-harakatlarida xolis va odil bo'lomasa, o'z faoliyatini davom ettirishdan voz kechishi shart.

Auditorlar va auditorlik tashkilotlarining reyestrini yuritish tartibi belgilandi.

Quyidagilar joriy etildi:

- auditorlik ishi sifatining ichki nazorati – auditorlik tashkiloti tomonidan amalga oshiriladigan, uning auditorlari va xodimlari tomonidan Qonun talablariga rivoja etilishini ta'minlovchi tartib-taomillarga asoslangan tashkiliy chora-tadbirlar tizimi. Ushbu nazorat auditorlik tashkiloti tomonidan auditorlik faoliyati standartlariga binoan amalga oshiriladi va auditorlik xizmatlari ko'rsatish chog'idagi majburiy shart hisoblanadi.

- auditorlik tashkiloti ishi sifatining tashqi nazorati – vakolatlari davlat organi auditorlarning respublika jamoat birlashmalari bilan birgalikda amalga oshiradigan, auditorlik tashkilotlari tomonidan Qonun talablarini va auditorlik faoliyati standartlarini buzishlarni aniqlashga hamda kelgusida ularning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi.

### **NATIJALAR**

Qonunda auditorlik faoliyati boradasigi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari belgilab berilgan. Auditor va uning yordamchisi, auditorlarni sertifikatlash tizimida to'g'ridan-to'g'ri amal qiladigan normalar asosida bat afsil ifodasini topgan. Unga ko'ra, auditor faqat bitta auditorlik tashkilotida auditorlik xizmatlarini ko'rsatishi hamda o'zi ishlaydigan faqat bitta auditorlik tashkilotining muassisi (ishtirokchisi) bo'lishi mumkin. SHuningdek, auditorlik faoliyati to'g'risidagi qonunchilik talablarini buzganligi sababli Auditorlik tashkilotlari reestridan chiqarilgan auditorlik tashkilotini ilgari boshqargan auditor uch yil mobaynida boshqa auditorlik tashkiloti rahbari bo'lishi mumkin emasligi qat'iy belgilab qo'yilgan.

Xalqaro tajribadan kelib chiqib, auditor malaka sertifikatini dastlab besh yillik muddatga berish, uning amal qilishini navbatdagi o'n yillik muddatga va keyinchalik muddatsiz davrga uzaytirishni nazarda tutuvchi normalar kiritildi. Bu hujjatni olish uchun talabgor oliv ma'lumotga hamda oliv ta'lif tashkilotini tamomlaganidan keyin oxirgi o'n yildan kamida uch yil buxgalteriya hisobi va audit sohasida ish stajiga ega bo'lishi lozim. Xalqaro buxgalter sertifikatiga yoki kamida o'n yillik uzuksiz auditorlik ish stajiga ega bo'lgan auditorlarga malaka sertifikatining amal qilish muddatini uzaytirish imtihon topshirmsandan amalga oshiriladi.

Auditorlik tashkilotlariga qulaylik va yengilliklar yaratish maqsadida bir qator yangi normalar kiritildi. Jumladan, auditorlik tashkilotlarining ustav kapitali miqdoriga bo'lgan talab bekor qilindi. Ustav fondi (ustav kapitali) auditorlik tashkiloti o'z faoliyatini amalga oshirishda bevosita foydalanadigan mol-mulkdan, shu jumladan, pul mablag'laridan shakllantiriladi.

### MUHOKAMA

Tashkilot o'z faoliyatini amalga oshirishda mustaqil bo'lib, vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar hamda boshqa davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari tomonidan tashkil etilishi mumkin emas. Unda asosiy ish joyi hisoblangan kamida to'rt nafar auditor bo'lishi, filialining rahbari esa, albatta, auditor bo'lishi kerak. Tadbirkorlik sub'ektlarining yagona davlat reestriga kiritilgan sanadan e'tiboran uch oy davomida u haqidagi ma'lumotlar Auditorlik tashkilotlari reestriga kiritilmagan tijorat tashkiloti o'z nomida "auditorlik tashkiloti" degan so'z birikmasidan foydalanishga haqli emas.

Qonunga ko'ra, xalqaro amaliyot asosida auditorlik xizmatlarining tarkibi aniqlandi. Aynan shunday xizmat turlari MDH mamlakatlari qonun hujjatlarida va auditning xalqaro standartlarida mavjud.

Auditorlik tashkilotlari auditorlik tekshiruvlari va auditorlik xizmatlarini ko'rsatadi, shartnomaga asosida ish olib boradi.

### XULOSA

Muxtasar aytganda, "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi qonunning yangi tahrirda qabul qilinishi tartibga solish va audit jarayonidagi tartib-taomillarning shaffofligini, moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarni ishonchli audit xulosasi bilan ta'minlaydi, xalqaro standartlar asosida mustaqil audit o'tkazish amaliyotini tatbiq etadi, auditorlik tashkilotlari xizmatlari sifatini va raqobatbardoshligini oshiradi, sohadagi hujjatlarni tizimlashtiradi va qonunosti hujjatlarning qisqarishiga olib keladi.

### REFERENCES

1. Fayziev Sh.N., Dusmuratov R.D., Karimov A.A., Kuziev I.N., Avlokulov A.Z. Audit: Darslik -T.: Iqtisod Moliya, 2015y. – 430 b.
2. Fayziev Sh., Karimov A. Audit. Uchebnoe posobie. – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2013. – 328 str.
3. Qo'ziyev I.N., Fayziyev Sh.N., Avloqulov A.Z., Sherimbetov I.X. "Ichki audit", O'quv qo'llanma. T. IQTISOD-MOLIYA, 2015. -192 b
4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 488 b.

5. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 104 b.
6. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekistondavlatini birqalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017.– 56 b.
7. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagagi PF-4947-sonli Farmoni.
8. “O‘zbekiston Respublikasida Auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 sentyabrdagi PF-3946-sonli Qarori.